



## LEKSIK-SEMANTIK MAYDON MASALASI VA “VAQT” TUSHUNCHASINING SEMANTIK TAHLILI

Shorasulova Arofat Ibroxim qizi,

TDSHU o'qituvchisi

Leksik–semantik maydon alohida til sistemasi sifatida murakkab lisoniy struktura ko'rinishiga egadir. Maydonning struktur o'zagini barcha paradigmatic guruhlar yig'indisi hosil qiladi. Paradigmatic munosabatlar turli xarakterga ega bo'lib, u yoki bu mazmuniy belgilari bilan yaqin bo'lgan leksik birliklarning har–xil sinflari ishtirokida namoyon etilishi mumkin. Paradigmatic munosabatlar bir chiziqli emasligi jihatidan farqlanib turadi. Chunki muayyan bir so'z bir vaqtning o'zida turli leksik–semantik paradigmaga xos bo'lishi mumkin. Bunda so'zlar ma'lum bir semantik xossalariga ko'ra o'zaro qarama–qarshi qo'yilishi mumkin.

Yu.N.Karaulov lug'at sostavining turli sohalarini semantik maydonlarga (masalan, xursandchilik maydoni), leksik–semantik guruhlariga (masalan, o'zgarish ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar guruhi), mazmuniy guruhlariga (masalan, qushlarning nomi), sinonimik qatorlarga (masalan, botir invariant ma'noga ega bo'lgan qator), onomaseologik guruhlariga (masalan, rus tilida otlar yordamida vaqt tushunchasining ifodalanishi) ajratish zarurligini ta'kidlaydi<sup>25</sup>.

I.V.Sentenberq tilning leksik–semantik sistemasida ierarxiyaning semantik munosabatida turuvchi quyidagi asosiy leksik–semantik paradigmalar ajratilishini ko'rsatadi: 1) leksik–semantik maydon; 2) leksik–semantik guruhlar; 3) mazmuniy qatorlar (leksik–semantik podgruppalar); 4) ko'p ma'noli so'zlar; 5) sinonimik, antonimik qatorlar, konversivlar<sup>26</sup>.

<sup>25</sup> Караулов Ю.Н.Общая и русская идеография.– Москва: Наука, 1976.314 с.

<sup>26</sup> Сентенберг И.В. Лексическая семантика английского глагола.– Москва: Наука, 1976. 314 с.



Maydon tushunchasiga G.S.Shchur tomonidan ta'rif keltirib o'tiladi. U maydonga umumiy (invariant) xususiyatlarga ega bo'lgan lingvistik elementlarning guruhlanishi va mavjudlik usuli, deb ta'rif beradi<sup>27</sup>.

So'zlarning leksik-semantik guruhlari leksik-semantik maydonning muhim tashkil etuvchi qismlari (komponentlari) hisoblanadi. Semantik maydonlarning qismlarini- leksik-semantik guruhlar, deb tasavvur qilish mumkin. Ya'ni semantik maydon va leksik-semantik guruh (LSG) tur-jins munosabatida bo'ladi<sup>28</sup>.

L.M.Vasilev leksik-semantik guruh atamasi hatto bir umumiy leksik paradigmatic sema yoki bir umumiy semantik ko'paytiruvchi bilan birlashgan so'zlarning semantik sinfini ifodalashi haqida fikr bildiradi<sup>29</sup>.

Tilshunoslikda leksik-semantik maydon masalasi borasida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bu boradagi olimlarning fikrlari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ma'lum bo'lishicha tilshunoslikda leksik-semantik maydon nazariyasi bir til doirasida, ikki til doirasida va qiyosiy tahlil asosida tadqiq qilingan. "Vaqt" tushunchasining leksik-semantik maydonini o'rganish jarayonida to'plangan ilmiy adabiyotlar mazmun-mohiyatiga ko'ra uch guruhga, ya'ni o'zbek, turk va rus tilshunoslari tomonidan o'rganilgan ilmiy ishlar toifasiga bo'lindi.

Masalan, o'zbek tilshunosligida Hakimova Muhayyo Karimovanning "O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari" mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasidagi, bevosita, vaqt kategoriyasi borasida tahlil va sintez qilingan masalalar katta ahamiyatga egadir. Mazkur ilmiy ishda vaqtning obyektiv, subyektiv belgilari va ularning tilda aks etish yo'sinlari, o'zbek tilining, temporal maydonida leksik-frazeologik birliklarning, tutgan o'rne, ko'lami, vaqt ma'noli lug'aviy birliklar komponent tahlil qilingan. M.V.Ergashevaning "Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo'linishi"

<sup>27</sup> Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. -Москва: Наука, 1974.255 с.

<sup>28</sup> Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы её описания. -Москва: Русский язык;1980.127 с.

<sup>29</sup> Васильев Л. М. Современная лингвистическая семантика. -Москва: Высшая школа, 1990. 175 с.



nomli maqolasi semantik maydon borasidagi tushunchalarning batafsil tahlil etilganligi bilan ahamiyatga molikdir. Unga ko'ra, lingvistik birliklarni mazmunty semantik maydonlarga bo'lib o'rganish semantikaning bir yo'nalishi ekanligi, semantik maydon u yoki bu semantik qatlamda qayd etilgan o'xshashlikka ega bo'lgan va spetifik semantik munosabatlar bilan bog'langan semantik birliklar yig'indisi ekanligi aytib o'tiladi. Lingvistik semantikaning struktur-semantika, konseptual semantika kabi yo'nalishlari mayjudligi til birliklarini maydon asosida o'rganish uchun qulayliklar yaratadi. O'zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi til birliklariga nisbatan sistem-struktur metodlarning qo'llanila boshlashi bilan bog'liq kabi fikrlar ham berib o'tiladi. M.F. Qurbonova "O'zbek tilida "ma'naviyat" semali leksik birliklarning semantik tahlili" nomli dissertatsiyasida semantik maydon atamasi g'arb tilshunosligi ta'sirida shakllanganligi, lekin tilimizda zardushtiylik dini davridayoq so'zlar semantik maydonga ajratilganligi, faqat "ma'no maydoni" deb e'tirof etilmaganligi aytib o'tiladi. Masalan, Zardushtiylik dini davrida iste'molda bo'lgan so'zlarga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, bu so'zlarni ikki turdagi ma'no maydoniga, ma'no tizimiga ajratishimiz mumkin. Birinchi ma'no maydoniga ezgulik ma'nosini o'zida jamlagan so'zlarni kiritsak, ikkinchi ma'no maydoniga yovuzlik ma'nosini beradigan so'zlarga ajratishimiz mumkin. Ishda "ma'naviyat" semasi va uning shakllanishida inson omili, ya'ni antroposentrik nazariya tadqiqiga to'xtalinadi. Ilmiy ishda "ma'naviyat" semasining ma'no mundarijasi va "ma'naviyat" semasiga ega bo'lgan birliklar aniqlanib tahlilga tortiladi. Tahlil davomida "ma'naviyat" semasiga ega bo'lgan birliklarni muayyaan integral va differensial belgilariga ko'ra guruhlab, imkon qadar "ma'naviyat" semasiga ega bo'lgan birliklarning izohi beriladi.

Turk tilshunosligida ham semantik maydon masalasiga e'tibor qaratilgan. Z.Jangabilova, E.Hamitovanning "Turk ve kazak dillerinde fiil ko'kenli antroponimlerin leksik-semantik o'zellig'i" nomli maqolasida turk va qozoq tillaridagi fe'l o'zakli antroponimlarning leksik-semantik qurilishi tahlil ostiga olinadi. Ma'lumki, fe'l o'zakli atoqli otlarning paydo bo'lishi fe'l va ularning leksik shakllarining ega, ya'ni isimga aylanishi natijasida sodir bo'lgan. Tilshunoslikda leksik qurilish so'z yasalishini, semantik



qurilish esa soʻz maʼnosini bildiradi. Tahlil jarayonida feʼl negizli antroponimlarni leksik-semantik jihatdan guruhlashda, turk va qozoq tillaridagi antroponimlarni, avval, maʼno jihatidan guruhlarga boʻlib, soʻng ularning paydo boʻlish tarixi haqida toʻxtalinadi. Lamiye Vagifkizining “Çağdaş türk ve Azerbaycan dillerinde kullanılan öztürkçe kelimelerin leksik-semantik özellikleri” nomli maqolasida tadqiq qilingan muammolardan biri hozirgi zamonaviy turkologiyadagi til protsessi hisoblanadi. Tadqiqotchi tomonidan tahlil jarayonida turk va ozarbayjon tillarida qoʻllaniluvchi soʻzlarning xususiyatlari, ularning leksik-semantik munosabatlari, terminlar va ushbu ikki tilning bir-biriga taʼsiri koʻrib chiqiladi. Hozirda mustaqil Ozarbayjon Respublikasidagi fuqarolar hech qanday taqiqlarsiz turkcha soʻzlarni ishlatishlari mumkin. Masalan: durum, yayim, gnem, soyadi, soydas, yetersay, oʻzellestirmek, ateskes, aguklama. destek, desteklemek, bilgisayar, soykirim, gecekodu, basari, va shu kabi bir qator soʻzlar umumiy holda qoʻllanilmoqda. Murat Murat Uluoğluning ““Kalaç” kelimesinin Türkçe’de ve Rusça’da leksik semantik özellikleri ve kullanım alanlari” maqolasida berilishicha turk lahchalari rus tilining soʻz xazinasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki rus tilidagi kundalik hayotda qoʻllaniluvchi koʻpgina soʻzlar turk lahchalaridan oʻzlashgan deb hisoblanadi. Aynigsa, rus tilidagi non turlari nomlarining bir qanchasi turkcha oʻzakli ekanligi diqqatni tortadi. Lekin ushbu baʼzi soʻzlarning oʻzagi tortishuvlarga ham sabab boʻlgan. Chunki ushbu soʻzlarning oʻziga xos etimologik kelib chiqish tarixi boʻlishi ehtimoldan holi emas. Turkcha “kalach” soʻzi ham yuqoridagi fikrimizga isbot boʻla oladi. “Kalach” soʻzining non turi nomi sifatida eski rus urf-odatlarida, ibora va maqollarida uchrashi, uning rus tilida ancha mustahkam joy olganligini va oʻzlashganligidan dalolat beradi. Turli manbalarda “kalach” rus diniy bayramlarida, maxsus kunlarda tayyorlanuvchi non turi, shuningdek, geografik termin ekanligi aytib oʻtilgan. Tahlil jarayonida “kalach” soʻzining oʻzagi asl turkcha ekanligi aniq dalillar orqali isbotlanadi. Aynur Yetmenning “Zamanin felsefi temelleri uzerine bir inceleme” nomli doktorlik dissertatsiyasida “vaqt” falsafiy jihatdan oʻrganib chiqiladi va uch guruhga boʻlinadi: 1. Biologik vaqt, yaʼni inson organizmidagi barcha aʼzolar ketma-ketlikda oʻz ish faoliyatini amalga oshiradi va bunga biologik soat deyiladi. 2. Psixologik vaqt. 3. Fizik vaqt.



S.G. Klyastornyning “Eski turk yazitlarida zaman ve mekan kavrami” nomli maqolasida, qadimgi turklarning turmush tarzini ifodalagan ilk manbaa bu- mil.av VI asrda yozilgan va shimolda yashagan ko‘chmanchi xalqni “ibtidoiy to‘da” sifatida tasvirlagan xitoy manbaasi Chou Shu ekanligini ko‘rish mumkin. Unda turklarning vaqtni hisoblashda taqvimdan emas, balki o‘simliklarning rangidan foydalanganliklari aytiladi. Shuningdek, qadimgi turklarga oid epigrafik yodgorliklar turklarning vaqtni aniqlashda boshqa turli xil yo‘llardan ham foydalanganligi bildiriladi. Ya’ni, ilk turk hoqonligidan qolgan yagona yodgorlik bo‘lmish Bugutdagi So‘g‘d yozuvlari “o‘n ikki hayvonli” taqvimdan qo‘llanilganligidan dalolat beradi. Bu taqvim yilning 12 oyga bo‘linganligini ko‘rsatuvchi “quyosh taqvimi” edi.

Rus tilshunosligida ham bu masala quyidagi ishlarda yoritilgan. JLH. Михеева “Время в русской языковой картине мира: лингвокультурологический аспект” nomli dissertatsiyasiga ko‘ra, avvallari lingvistika vaqtni grammatik kategoriya sifatida o‘rgangan bo‘lsa, hozirga kelib, dunyo til manzarasi elementlaridan biri bo‘lgan, u yoki bu xalqni lingvokulturalogiya jihatidan o‘rganuvchi madaniy konsept, kognitiv kategoriya sifatida o‘rganmoqda. Vaqt mayjudlik, ong, ilm-fan, madaniyat, til, umuman olganda kishilarning kundalik hayoti va faoliyatining turli jabxalarini o‘zida aks ettiruvchi fundamental va universal kategoriya hisoblanadi. Shuning uchun ham, vaqt qadimdan turli fanlarning o‘rganish predmeti bo‘lib kelmoqda, shunday bo‘lsa-da, haligacha insoniyat uchun ham, fan uchun ham vaqt tushunchasi sirliligicha qolmoqda. Yu.AKuznetsovning “Лексико-семантическое поле смеха как фрагмент русской языковой картины мира” dissertatsiyasi hozirgi zamon rus tilidagi “kulgu” tushunchasining leksik-semantik maydonini lingvokulturologik aspektda o‘rganishga va “kulgu” leksemasini konsept ekanligini aniqlashga qaratilgan. Til leksik sistemasida “kulgu” tushunchasining leksik-semantik maydonini his-tuyg‘u, mimika, tovush baland pastligi, jestlar egallashi tahlil natijasida namoyon bo‘lishi tadqiq etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslikda leksik-semantik maydon masalasi tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda bu tushuncha turlicha talqin qilinmoqda. Ularni jamlagan holda



yirik ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi olimlar muayyan ma'no asosida birlashgan teng qimmatli lisoniy birliklar sinfini bir mazmuniy maydon, deb baholaydilar. Bunday vaqtda maydon lingvistik: paradigma bilan umumiylikni tashkil etib qoladi. Shu sababli ular mazmuniy maydon bilan paradigma tushunchalarini bir biridan farqlashga harakat qiladilar va ikki tushuncha o'rtasidagi differensial belgi sifatida turli sathlilik va bir sathlilik belgisini oladilar, Bunga ko'ra mazmuniy maydon tushunchasi faqat bir umumiy maydon atrofida birlashgan leksemalar munosabatiga ko'ra qo'llanilsa, ya'ni faqat leksik sathga nisbatan qo'llanilsa, paradigma deyarli barcha sath birliklar uchun qo'llanila beradi. Bunday vaqtda paradigma tushunchasi muayyan umumiy ma'no asosida birlashgan leksemalar sinfini ham, sintaksemalar sinfini ham, shuningdek, ma'lum umumiy belgi asosida bir sinifga birlashgan fonemalar sinfini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh olimlar esa paradigma, mazmuniy maydon va turli sathlilik o'rtasidagi differensial belgi sifatida ana shu bir sathlilik va turli sathlilik belgisini olgan bo'lsalar ham, lekin bu belgini paradigma va maydon tarkibidagi a'zolar o'rtasidagi munosabatga nisbatan qo'llaydilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimova M.K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. (f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya) — Farg'ona, 2004
2. Караулов Ю.Н.Общая и русская идеография.- Москва: Наука, 1976.314 с.
3. Сентенберг И.В. Лексическая семантика английского глагола.- Москва: Наука, 1976. 314 с.
4. Щур Г.С. Теория поля в лингвистике.-Москва: Наука, 1974.255 с.
5. Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы её описания.-Москва: Русский язык;1980.127 с.
6. Васильев Л. М. Современная лингвистическая семантика. –Москва: Высшая школа, 1990. 175 с.
7. Qurbonova M.F. O'zbek tilida "ma'naviyat" semali leksik birliklarning semantik tahlili. Magistr akademik darajasini olish yozilgan dissertatsiya. T.:2014



8. Jangabilova Z., Hamitova E. Türk ve kazak dillerinde fiil kökenli antroponimlerin leksik-semantik özelliği.//Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Ankara, 2000. – S.50-62
9. Lamiye Vagifkizi. Çağdaş Türk ve Azerbaycan dillerinde kullanılan öztürkçe kelimelerin leksik-semantik özellikleri. Bakû. 2008. – 5 s.
10. Murat Uluoğlu. “Kalaç” kelimesinin Türkçe’de ve Rusça’da leksik semantik özellikleri ve kullanım alanları. Ankara. 2010. – 10 s.
11. Klyastorny S.G. Eski türk yazıtlarında zaman ve mekan kavramı. Çev. Deniz Karadeniz. Dil Araştırmaları. Ankara. 2015. – S.20-25
12. Михеева Л.Н. Время в русской языковой картине мира: лингвокультурологический аспект. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Москва - 2004
13. Кузнецов Ю.А. Лексико-семантическое поле смеха как фрагмент русской языковой картины мира. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Санкт-Петербург, 2005
14. Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы её описания.-Москва: Русский язык;1980.127 с.
15. Васильев Л. М. Современная лингвистическая семантика. –Москва: Высшая школа, 1990. 175 с.
16. Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы. (На материале английского языка). -Москва: Наука,1962.287 с.